

Ibragimova Gulsanam Nematovna
Nizomiy nomidagi Toshkent
davlat pedagogika universiteti
professori, pedagogika fanlari doktori

BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM MUTAXASSISLARINI INNOVATSION KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONI OLDIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Annotatsiya. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini funksiyalash tartibidagi faoliyati – hayotiy faoliyat, ma'lum bir holatni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan bo'lib, davriy qaytarilishi xususiyatiga ega ma'lum bir holatni takrorlanishini, mavjud malakasini qayta chiqarish va ishlangan salohiyatni qo'llashdan iborat. Shunga mos ravishda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyat yo'nalishlarini taqqoslovchi tavsifnomalari keltirilgan. Ular innovatsion jarayonlarni boshqarishdagi yo'nalishlar bo'lib, muassasani an'anaviy tartibdan innovatsionga o'tkazish imkonini beradi.

Tayanch tushunchalar: innovatsiya, innovatsion kasbiy faoliyat, maktabgacha ta'lim taraqqiyoti, ta'limda insoniylashtirish, pedagogik innovatsiyalar.

ТРЕБОВАНИЯ, ПРЕДЪЯВЛЯЕМЫЕ К ПРОЦЕССУ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ К ИННОВАЦИОННОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. Деятельность в порядке функционализации дошкольных образовательных организаций – жизнедеятельность, направленная на поддержание определенного состояния, заключается в повторении определенного состояния с характеристикой периодического возвращения, перевыпуска существующих квалификаций и применения отработанного потенциала. Соответственно, представлены описания дошкольных образовательных организаций, сравнивающих направления деятельности. Это направления в управлении инновационными процессами, позволяющие перевести учреждение от традиционного порядка к инновационному.

Основные понятия: инновация, инновационная профессиональная деятельность, развитие дошкольного образования, гуманизация образования, педагогические инновации.

REQUIREMENTS FOR THE PROCESS OF PREPARING FUTURE PRESCHOOL EDUCATION SPECIALISTS FOR INNOVATIVE PROFESSIONAL ACTIVITY

Annotation: Activity in the order of functionalization of preschool educational organizations – vital activity, aimed at supporting a certain state, consists in the repetition of a certain state with the characteristic of periodic return, the re-release of existing qualifications and the application of The worked potential. Accordingly, the descriptions of preschool educational organizations comparing the directions of activity are presented. They are directions in innovation process management, enabling the transfer of the institution from traditional order to innovation.

Basic concepts: innovation, innovation professional activity, development of preschool education, humanization in education, pedagogical innovations.

Dolzarbli: O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviylashtirish sharoitida uning yo'nalishlari sifatida sifat, samaradorlik maktabgacha ta'lim tashkilotlariga talablarning almashinishi amalga oshiriladi. Shunga muvofiq ravishda, maktabgacha ta'lim tashkilotlar faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'lim sifatini yuqori darajaga ko'tarish;
- maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion ta'lim texnologiyalardan foydalanish;
- maktabgacha yoshdagi bolani shaxs sifatida rivojlanishi, o'zini jamiyat bir qismi sifatida namoyon eta olishi.

Har qanday maktabgacha ta'lim tashkiloti uch bosqichdan o'tadi: barpo etish (yangi maktabgacha ta'lim tashkiloti va jamoani tashkil etish) funksiyalash (tarbiya-ta'lim jarayoni an'anaviy barqaror dasturlar va pedagogik texnologiyalar asosida yaratilgan); taraqqiyot (ta'limning avvalgi tarkibi, tarbiyaning pedagogik texnologiyalari yangi maqsadlari va maktabgacha ta'lim tashkilotini sharoitlari, hamda davlat ta'lim standartlariga qarama-qarshilik kiradi) [2]. Rivojlanayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari rivojlantiruvchi tizim sifatida faoliyat yuritib, bir marta o'rnatilgan va abadiy qolgan tartibni ushlab turuvchi muassasalardan farq qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini ikki asosiy tarkibi mavjud. Quyida har bir tartibini tavsifnomalari va farq qiluvchi xususiyatlari ko'rsatilgan (1-jadval).

1-jadval

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyat tavsifnomalari

Ko'rsatkichlar	Funksiyalashtirish	Rivojlantirish
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turi/toifasi	An'anaviy, tipli	Innovatsion
Boshqaruvning maqsadi va vazifalari	Natijalarning o'zgarishligini qo'llab-quvvatlash, tajribani qo'llash va orttirgan salohiyatni namoyon etish	Mobillik, egiluvchanlik va variativlikni ta'minlash uchun tarbiya ta'lim jarayonlarini komponentlarini yangilash
Boshqaruv sub'ekti	Ma'muriyat boshqa sub'ektlarning huquqlari cheklanganda, gorizont al oloqalar taraqqiy etmaganda, bir kishilik boshqaruv jamoaviylikdan ustun keladi.	Boshqaruvning jamoaviy sub'ekti. Gorizont al oloqalarining rivojlanganligi. Yakka boshqaruv va jamoaviy kengashda: rag'batlantirish va tashabbuslar
Boshqaruvning ilmiy konsepsiyalari, yondashuvlar	Empirik shaxsiy malakaga asoslangan	Motivatsion dasturiy-maqсадli boshqarish uning turlari. Refleksiv boshqarish. Rivojlanishning majmuaviy-maqсадli va rivojlanish dasturlarini tuzish
Motivatsion ta'minlash	Barqaror ishlash uchun qulay psixologik iqlimning yaratilishi	Ijodiylik muhitini, mavjud bo'lgan moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimida, sub'ektlarni o'zini o'zi namoyon qilish uchun izlanish muhitini yaratish
Tarbiya-ta'lim jarayoni	Barqaror sharoitda mustahkam natijalarga erishish	O'zgaruvchan sharoitlarda sifat jihatidan yangi natijalarni olish.
Ta'lim tarkibi	An'anaviy g'oyalar, o'quv, predmet rejalari va dasturlaridan foydalanish	Yangiliklarni o'zlashtirishda taraqqiyot rejalari va majmuaviy-maqсадli dasturlardan foydalanish
Texnologiyalar	Barqaror natijalarni ta'minlaydi	Shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya, sub'ektni o'zini o'zi rivojlanishini ta'minlaydi
Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkilashtirish	Ma'lum kunlar va ta'lim bosqichlariga ega bo'lgan avvalgi tizim	Ko'p bosqichli, ko'p pog'onali ta'lim maktabgacha ta'lim tashkiloti -maktab-oliygoh tizimida

Normativ-huquqiy ta'minlash	Barqaror faoliyatni ta'minlaydigan namunaviy hujjatlardan foydalanish	Namunaviy hujjatlar shaxsiy ishlanmalarga asos bo'ladi
Kadrlar bilan ta'minlash	Ta'lim va tarbiyada barqaror natijalarni olish uchun kasbiy kompetensiyalar darajasiga qo'yilayotgan an'anaviy talablar	Tanlov asoslari, raqobatbardoshlik, innovatsion metodikalarni tayyorlash, kurslarning variativligi. Tanlov asosi
Ilmiy-metodik ta'minot	An'anaviy o'quv dasturlari va rejalari	Sub'ektlarning yaqin taraqqiyotiga yo'nalgan innovatsion mualliflik metodikalar
Moliyaviy ta'minlash	Byudjet	Byudjet va byudjetdan tashqari
Moddiy texnik bazani ta'minlash	Mavjud materiallarning asosida bazaviy jarayonni tashkil etish	Dinamik taraqqiyot natijasi sifatida ta'minot doimiy ravishda kengaymoqda

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini taraqqiyot tartibidagi faoliyati – maqsadga yo'naltirilgan, qonuniyatli, uzluksiz va muassasasining sifat jihatidan yangi holatda o'tishi ortga qaytmaydigan jarayon bo'lib, madaniy-ijodiy yo'nalganlikdan, hamda doimiy kengayotgan taraqqiyot salohiyatidan foydalanishdir.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti taraqqiyot yo'lida ekanligini aniqlashning bir qancha belgilari mavjud:

1. Dolzarblik (ahamiyatlilik va o'z vaqtida bo'lishlik) jiddiy muammolarni har qilish uchun amaliy choralarni ishlab chiqishga qaratilgan ishlarini olib borishi.

2. Bo'lajak pedagog-tarbiyachilarning katta qismi qidiruv faoliyatiga jalb etilishi; jamoada innovatsion salohiyat va iqlimi, shuningdek, innovatsion faoliyatning barcha ishtirokchilari qiziqishlarini uyg'unligidir.

3. Natija tavsifnomasi: samaradorlik, mahsuldorlik optimallik.

4. Innovatsion taraqqiyotning ko'rsatkichlari mavjud: mustahkamlik, qayta ishlashlik, sifat, boshqaruv tizimini transformatsiyasining sifati, pedagogik jarayonning barcha komponentlarni yaxlitligi va ularning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshirish sharoitlari.

A.A.Mayer [3] maktabgacha ta'lim tashkilotini taraqqiyot shartlari va rivojlanish g'oya manbalarini ajratib ko'rsatadi: keng har tomonlama tahlilga tayangan maqsadni aniqlashtirish; taraqqiyot konsepsiyasini mavjudligi; moddiy-texnik bazasini kadrlar bilan ta'minlash, bo'lajak faoliyat uchun zahiralarni ilmiy-metodik qo'llab-quvvatlash; jamoada ijtimoiy-psixologik muhitning ijobiyligi, pedagoglarning rivojlanish dasturini tadbiq etishga tayyorligi, sub'ektlarning joriy faoliyat natijalari bilan qoniqqanligi, innovatsion jarayonning barcha ishtirokchilarini qiziqishlarini uyg'unligi; qo'yilgan masalalarni yechimida erkin tanlovni ta'minlash; innovatsion faoliyatda pedagogik maqsadga muvofiqlik, innovatsion faoliyatning optimal texnologiyalarni tanlash; jamiyatni ta'limiy salohiyatidan foydalanish; maktabgacha ta'lim tashkilotini ochiqligi va tashqi aloqalarini kengaytirish; maqsadga yo'naltirilgan boshqarishni tashkillashtirish, boshqaruv turlarini optimal uyg'unlashtirish; boshqa maktabgacha ta'lim tashkilotlarni ijobiy malakasini o'rganish va qo'llash.

Bugungi kunda milliy maktabgacha ta'lim taraqqiyoti quyidagi yo'nalishga qarab ketmoqda:

-ta'limni yangi mazmunini shakllantirish;

-innovatsion pedagogik texnologiyalarni, usullari bolalarni rivojlantirish tizimini ishlab chiqish, tadbiq etish va amalga oshirish;


-yangi turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini yaratish.

Maktabgacha ta'lim tizimida ro'y berayotgan transformatsiyalar (o'zgarishlar) ta'lim tizimini o'zgartirish va evolyusiyalashish, jamiyat taraqqiyotiga mos ob'ektiv va adekvat ehtiyoji bilan shartlangan bo'lib, pedagogik hamjamiyatning ongida muassasa faoliyatida jiddiy o'zgarishlar zarurligi aks etadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatida innovatsiyalarni qidirish va ularni o'zlashtirish, tizimni optimal taraqqiy ettirishning asosiy mexanizmi bo'lib, maktabgacha

ta'limni sifatli o'zgarishiga turtki bo'ladi. Maktabgacha ta'limni rivojlantirishni zamonaviy tendensiyalar taklif etilgan (2-jadval).

2-jadval

Maktabgacha ta'limni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari



Bugungi kunda ishonch bilan aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarni rasmiy yoki mazmunli jihatdan qidiruv tizimiga o'tgani, taraqqiyot tizimiga o'tishdagi sifatli o'zgarishlarga o'tuvchi bosqich hisoblanadi.

Boshqa jihati ushbu o'tishning sifatli belgilari bilan bog'liq: qanchalik innovatsiyalar maktabgacha ta'lim tashkilotida mavjud ehtiyojlar va imkoniyatlarga muvofiq. Shuning uchun

- 32 maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanishning dolzarb muammolarini aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim tizimida mavjud konsepsiyalar, loyiha va dasturlarning tahlili tizimni taraqqiy ettirish uchun bir qator bazaviy asoslarni ajratishga imkon berdi (2-jadval).

Insoniylashtirish (gumanizatsiya) sub'ektlarning (ota-onalari, pedagoglar, bolalar) shaxsiy taraqqiyoti obro'yini o'rnatib, insoniy qadriyatlarga asoslangan ta'lim taraqqiyotini har tomonlama yetuk va uyg'unlikda shakllangan shaxsni tarbiyalab, sub'ektni o'zini o'zi boshqaruvchi taraqqiyot o'rniga o'tkazishdir. V.A.Slasteninning [4] ta'kidlashicha, ta'limni insoniylashtirish (gumanizatsiyalash) - jarayon shaxs taraqqiyotiga sub'ektni ijodiy faoliyatiga yo'naltirilgan bo'lib, "ijodiy faoliyat sub'ekti sifatida shaxsning taraqqiyotiga qaratilgan bo'lib, pedagoglar va tarbiyalanuvchilarning hayot tarzining muhim tavsifnomasi bo'lib, pedagogik jarayonda haqiqiy insoniy (guman) munosabatlarni o'rnatish" shaxs taraqqiyoti g'oyasida fokuslashgan pedagogik tafakkurning kalit komponentidir.

Ta'limda insoniylashtirishning yetakchi yo'nalishi shaxsni madaniyatda o'zini o'zi anglash, uning milliy-madaniy an'analarga mansubligi, zamonaviy g'oyalar bilan yo'g'rilganligi hisoblanadi. Insoniylashtirish jamiyatning eng oliy qadriyati – har bir bola shaxsiga kuchaytirilgan e'tibor qaratish, yuqori intellektual, ma'naviy va jismoniy sifatlarga ega fuqaroni shakllantirish.

Demokratizatsiya ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining huquq va vakolatlarini kengayishi bilan bog'liq bo'lib, sub'ektlarning individual ehtiyojlari va talablarini qondirishga yo'naltirilgan. Bu o'z navbatida faoliyati, tashabbuskorlik va ijodni tarbiyalanuvchilar va pedagoglarda rivojlantirish asoslarini yaratib, ularni o'zaro manfaatli o'zaro ta'sirga, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotining boshqaruvida jamoatchilik ishtirokini kengaytirishni nazarda tutadi.

Diversifikatsiya muassasalarning, xizmatlari va yetarlicha turlari va toifalarni nazarda tutib, maktabgacha ta'lim tashkiloti ning ta'lim jarayoni ishtirokchilarini talablarini qondirishga qaratilgan.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga berilgan asoslarining maktabgacha ta'lim tashkiloti loyihasi, uning barcha tizim ostilarini yangicha taqdim etadi. Bu borada, bir qator asosiy tamoyillar ajratilib, ular maktabgacha ta'lim tashkiloti va uning ishtirokchilari taraqqiyoti jarayonida qayd etilgan yo'nalishlarning taraqqiyotini ta'minlab beradi:

- insoniylikka-muvofiq (madaniy va tabiiy muvofiqligining yahlitligi);
- pedagogik jarayonlarning yahlitligi va g'oyalarning majmuaviyligi;
- pedagogik jarayonning barcha sub'ektlarini pedagogik o'zaro ta'sir, teng-sheriklik va faol bo'lishlari.

Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqaruvini modernizatsiyasi boshqaruv texnologiyalarni ko'p turlarini taqozo etib, boshqaruvchi tizim mazkur tizimga majmuaviy va har tomonlama ta'sirni ta'minlab, o'zini o'zi boshqarish yondashuvlarida motivatsion va dasturiy-maqсадli yondashuvlar doirasida hamkorlikda boshqarish, refleksiv boshqarish va o'zini o'zi boshqarishdir

Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitida individual taraqqiyoti ta'lim jarayoni va uni rejalashtirishda turli yondashuvlarni, dasturiy-uslubiy ishlanmalarni muassasa faoliyatini ta'minlashi uchun talab qilinadi. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimiga nisbatan o'zgarayotgan talablar, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini zamonaviy ta'lim majmua dasturlari, texnologiyalar va metodikalardan foydalanishga undashi (motivatsiyalashi) kerak.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion menejment, quyidagilarni nazarda tutadi:

- innovatsion rejalar va dasturlarni ishlab chiqish;
- innovatsion mahsulot yaratilishini va hayotda tadbiq etilishini kuzatish;
- yangi mahsulot yaratish loyihalarini ko'rib chiqish;
- yagona innovatsion siyosatni olib borish – tuzilmalarning barcha bo'linmalarni faoliyatini koordinatsiyalash;

- innovatsion jarayonlarni moliyaviy va moddiy ta'minoti;
 - innovatsiyalarni amalga oshiruvchi xodimlarni boshqarish;
 - innovatsion muammolarni majmuaviy yechish uchun maqsadli guruhlarini yaratish.
- Maktabgacha ta'lim tashkilotida innovatsiyalarni boshqarish quyidagicha bo'lishi mumkin

[1]:

1. Innovatsion jarayonlarni dasturiy-uslubiy ishlanmalar bilan ta'minlash: maktabgacha ta'lim tashkiloti rivojlantirish dasturi, biznes-reja, ta'lim dasturi, yillik reja.

2. Innovatsion jamoaviy va individual pedagogik loyihalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.

3. Maxsus ta'limni differentsiatsiyalashgan yangi shakllarini joriy etish: vaqtincha logopedik guruh, logopunkt.

4. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari uchun qo'shimcha sog'lomlashtirish va ta'lim tarmoq bepul xizmatlarni yaratish: to'garaklar, studiyalar, seksiyalar va h.k.

5. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga bormaydigan bolalar uchun ta'lim xizmatlar doirasini kengaytirish: pullik ta'lim xizmatlari, erta yoshdagi bolalar uchun qisqa muddatli guruhlar (moslashtiruvchi, korreksion-rivojlantiruvchi), katta yoshdagi bog'cha bolalari uchun maktabga tayyorlov guruhi.

6. Ota-onalar (qonuniy vakillar) va oila sharoitida tarbiyalanayotgan imkoniyatlari cheklangan bolalar, oilaviy va jamoaviy tarbiyani qabul qilishlari, ota-onalarga (qonuniy vakillari) uchun pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash maslahat punktlarini yaratish.

7. Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatida jismoniy-sog'lomlashtirish (sog'lomlashtirish-o'yinli, dinamik "soat", harakatlanuvchi ijodiyot "soati") ishlariga innovatsion yondashuvni joriy etish.

8. Bolalar va ota-onalar munosabatlarini uyg'unlashtirish ijtimoiy texnologiyalari.

9. Innovatsion faoliyatni ilmiy-uslubiy mahsulotlari – metodik qo'llanma va ishlanmalarni chop etish, Internet tarmog'ida pedagoglar ma'lumotlarini yuklash; muammoli seminarlarda va ilmiy-amaliy konferensiyalarda, Internet-jamoalari, forumlar, pedagogik kengashlarda onlayn ishtirok etish.

10. Ijodiy va muammoli guruhlarda ishlash, master-klasslarni o'tkazish.

11. Ta'lim jarayonini axborotlashtirish: maktabgacha ta'lim tashkilotini sayti faoliyatini tashkillashtirish, media tashkil etuvchi vositalarning salohiyatidan loyiha-tadqiqot faoliyati mahsulotlarini taqdim etish uchun foydalanish, ma'lumotlar bazalarini tuzish, internet-resurslar bilan ishlash, tashxislovchi instrumentariyalarni ishlab chiqish va h.k.

12. Muassasaning moliyaviy mustaqilligiga o'tish, byudjetdan tashqari mablag'larni jalb etish, pulli ta'lim xizmatlarni tashkillashtirish.

Shunday qilib, samarali va zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasini ratsional va samarali boshqaruvchisi-mudiri, direktor, rahbari boshqaruv asoslarini bilishi, maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish usullari va zamonaviy samarali strategiyalarini tushunishi, jamoa bilan ishlash texnologiyalarini ijobiy konstruktiv yondashuv va rahbarning liderlik funksiyalariga asoslangan bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ибрагимова Г.Н. Бўлажак мактабгача таълим мутахассисларини инновацион касбий фаолиятга тайёрлаш тизими. Педагогика фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2021. – 229 б.

2. Кузьмичева Е.И. Развитие инновационных процессов в профессиональных педагогических коллективах дошкольных образовательных учреждений: Дис. канд. пед. наук. Тольятти, 2000. – 196 с.

3. Майер А.А. Модернизация дошкольного образования / Управление дошкольным образовательным учреждением. 2004. № 2 (4). с.16-20

4. Сластенин В.А., Мищенко А.И. Целостный педагогический процесс как объект профессиональной деятельности учителя. Москва, 1997. – 19-б.